

**TA'LIM QORAQALPOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN  
MAKTABLARDA ONA TILINI O'QITISHDA NUTQIY  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI HAQIDA**

***Kudiyarova Venera Kadirbaevna***

*Nukus tumani 29-maktab direktori*

[kudiyarovavenera@mail.ru](mailto:kudiyarovavenera@mail.ru)

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarida ona tilini o'qitishda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari muhokama qilingan. Ushbu masalalarning yechimi orqali ta'lim jarayonida qoraqalpoq tilini o'qitishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning tadqiq qilinishi, usullari haqida so'z yuritilgan.

***Kalit so'zlar:*** qoraqalpoq tilini o'qitish, nutqiy, model, metodika, bosqichlar, tayyorgarlik, universallik.

***Аннотация.*** В данной статье обсуждаются вопросы развития речевой компетенции при обучении родному языку в школах с каракалпакским языком обучения. Речь идет об исследовании, методах развития речевой компетенции при обучении каракалпакскому языку в образовательном процессе посредством решения этих вопросов.

***Ключевые слова:*** обучение каракалпакскому языку, речевой, модель, методика, этапы, подготовка, универсальность.

***Abstract.*** This article discusses the development of speech competence in teaching the native language in schools with the Karakalpak language of instruction. We are talking about researching the methods of developing speech competence in teaching the Karakalpak language in the educational process through solving these issues.

***Keywords:*** Karakalpak language teaching, speech, model, methodology, stages, preparation, versatility.

So'nggi yillarda mustaqil fikrlash yoshlar tarbiyasining negizi sifatida mamlakatimizdagi qonun va farmonlar mazmunida o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonida "...o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish" [2.] vazifalari qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirishga, ularni shaxs sifatida shakllantirishga, hayotiy faoliyatida tarbiyaviy, madaniy, ma'rifiy jihatdan yondashib, ongli ravishda faol ishtirokini ta'minlashga asos bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili ta'limida nutqiy faoliyat turlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari atroflicha o'rganilgan bo'lsa ham, 6-7-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish metodikasi etarli darajada takomillashtirilmagan. M.S.Ernazarova [2;22]ning tadqiqotida "qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bo'yicha qoraqalpoq tili metodikasini sharxlash" ni qo'llashdan turli maqsadlar ko'zlanishi nazarda tutiladi.1. Qoraqalpoq tili metodikasini sharxlash ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili darslari bo'yicha o'tilgan nazariy ma'lumotlarni idrok qilishga yordam beradi. 2. Qoraqalpoq tili metodikasini sharxlash nazariy ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashni bildiradi. 3. Og'zaki nutqni o'stirishga yordam beradi. 4.Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi. 5. Butun dars jarayonida o'quvchilarda nazariy ma'lumotlar ta'kidlanadi". 6. Dars jarayonida o'quvchining qoraqalpoq tili metodikasini sharxlashni o'rganadi [2; 12-b.]

Metodist olimaning fikrlariga qo'shilgan holda, quyidagicha izoh berish mumkin, qoraqalpoq tili darslarida tahlil natijasida to'g'ri so'zlash va to'g'ri yozish qoidalariga amal qilganligi sinovdan o'tadi. O'quvchilarning talaffuzi, nutq

texnikasiga e'tibor berishi orqali, olgan bilimni amalda og'zaki nutqida so'zlay olishi muhim.

A.A. Yembergenovanning ilmiy izlanishida o'quvchilarning kasbiy nutqini va nutqiy faoliyatini o'stirish masalalari o'z aksini topgan. [3;52], matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari D.B.Seytkasimovning filolog-o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi [4;70], Q.Pirniyazov tomonidan boshlang'ich sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi. [5;392] G.R.Bekimbetovanning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish mexanizmini takomillashtirish [6;65] pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida alohida qoraqalpoq tili metodikasini rivojlantirilishi tadqiq qilingan.

G.R.Bekimbetova tadqiqot ishida o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini topshiriqlar orqali rivojlantirishni tadqiq qilingan [6;16].Qoraqalpoq tilini davlat tili sifatida o'qitish mazmunida quyidagilar belgilangan:

1. Nutqiy-kommunikativ malaka, turli nutqiy vaziyatlarda fikr bayon eta olish, fikr almashish, eshitilgan materialni idrok etish, o'qish orqali axborot olish, fikrlarni yozma bayon qila olish malakalarini rivojlantirish.

2. Til vositalarini nutqda qo'llash uchun qoraqalpoq tili ta'lim tizimidagi zarur bilimlarni (nutq tovushlaridan to muomalaning eng kichik birligi – gapgacha) o'zlashtirish, ya'ni grammatik malakani rivojlantirish.

3. Qoraalpoq xalqining milliy xususiyatlari, madaniyati hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali hosil qilinadigan bilim, ko'nikma va malakalar [6;19-b.].

4. Qoraalpoq etnopedagogikasini metodik rivojlantirish.

5.Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda ona tilini o'qitishda lingvodidaktik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish metodikasini rivojlantirish.

6. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda ona tilini o'qitishda **lingvodidaktik, lingvometodik va lingvopsixologik** xususiyatlarni metodik rivojlantirish davr talabidir.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarida ona tilini o'qitishda o'quvchilarning grammatik malakalarini hosil qilish, nutq jarayonida til vositalaridan o'rinli foydalanish, xalqimizning yuksak madaniyati, milliy urf-odatlarini mustahkamlash joiz. Bu vositalar orqali erkin muloqot qilish, nutqiy vaziyatlarda muomala madaniyatiga rioya qilish ko'nikmalari, savodli og'zaki va yozma nutqni ifoda qilish shakllanib boradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni // Xalq so'zi. – T.: 2019 yil 30 aprel. № 88 (7318).
2. Эрназарова М.С. Таълим қорқалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Пед. фан. ном. ... дисс. – Т.: 1999. – 22 б.
3. Yembergenova A.A. Bos'hlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarining imloviy savodxonligini takomillas'htiris'h metodikasi.( ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) Ped. fan. fal.(PhD) dok. ... diss. Avtoreferat. – N.: 2023. – 52 b.
4. Seytkasimov D.B. Filolog-o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini takomillas'htiris'h metodikasi (qoraqalpoq tili va adabiyoti yo'nalis'hi o'quvchilari misolida): Ped. fan. dokt... diss. avtoref. – Nukus: 2023. – 70 b.
5. Пирниязов Қ. Бошланғич синфларда қорақалпоқ тилини ўқитиш методикаси. Нукус: Билим.: 1993– 392 б.
6. Бекимбетова Г. Таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларда қорақалпоқ тилини ўқитиш механизмини такомиллаштириш: пед.фан.док. (DSc) дисс.–Нукус.: 2024.285-б.